		Yotoq-po-toq berar	Une chambre d'hôtel	Vaqtinchalik mehmonxona xo-nasi haqidagi ta-savvur	Milliy muhitning to'liq aks etmas-ligi	Résidence universitaire
		Talabalar yashash jo-yi	Hôtel	Mehmonlar uchun mo'ljal-langan maskan	Lingvomadaniy nomuvofiqlik	Foyer d'hébergement
		Vaqtincha tanishining xonasida turish	Je partage la chambre d'une amie	Fransuz kitobxo-nida mehmonxo-nadagi yashash manzarasi hosil bo'lishi	Madaniy konsept-larning mos kel-masligi	Résidence universitaire yoki foyer

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, badiiy tarjimada yuzaga keladigan ko'plab muammolarning asosida lingvomadaniy nomuvofiqlik yotadi. Realiyalar, frazeologizmlar va soxta ekvivalentlarning noto'g'ri talqin qilinishi kitobxon ongida asliyatga xos bo'lmagan tasavvurlarni shakllantirib, kognitiv dissonansni yuzaga keltiradi. Shu sababli adekvat tarjimaga erishishda faqat lug'aviy ekvivalentlik emas, balki lingvomadaniy moslik, pragmatik ekvivalentlik va kognitiv konsonansni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy tarjimada lingvomadaniy birliklarni qayta yaratish jarayoni ko'p bosqichli va murakkab hodisa bo'lib, u tarjimondan nafaqat til tizimini, balki xalqlarning madaniyati, mentaliteti va konseptual dunyoqarashini ham chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun zamonaviy tarjimashunoslikda realiyalar, frazeologizmlar va kognitiv dissonansni o'zaro bog'liq holda tadqiq etish adekvat tarjimaga erishishning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Федоров А.В. Основы общей теории перевода. М., "Высшая школа", 2002.

(2). Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). М., "Высшая школа", 1990.

(3). Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М., "Международные отношения", 1980.

(4). Rustamova M. Abe Koboning "Qumdagi Xotin" asari tarjimasining lingvopoetik xususiyatlari. Fil. fanlari bo'yicha (PhD) diss., Toshkent, 2026.

(5). Xomidov X. O'zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari. Fil. fanlari bo'yicha (DSc) diss., Toshkent, 2021.

(6). Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. Toshkent, 2005, 35-bet.

(7). Newmark P. A Textbook of Translation. New York, Prentice Hall, 1988.

(8). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 2018, 408 p.

(9). Abdullayeva M. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari (Agata Kristi asarlarining o'zbekcha tarjimalari misolida). Fil. fanlari bo'yicha (DSc) diss., Toshkent, 2023.

(10). Shirinova R. Badiiy tarjimada olam milliy manzarasi. Fil. fanlari bo'yicha (DSc) diss., Toshkent, 2018.

(11). Erkin A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. T., 2001, 18-bet.

(12). Erkin A'zam. Adieux aux contes de fées. T., 2015, p. 218.

Raximova Sulurxon Djumaniyozovna (Urganch davlat Pedagogika instituti Filologiya fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti)

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI BARQAROR TIL BIRLIKLARINING MADANIY-SEMANTIK TADQIQIGA DOIR

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan barqaror til birliklarining madaniy-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklar, maqol va matallar, iboralar hamda boshqa turg'un birikmalarning mazmuni, ularning milliy-madaniy asoslari, badiiy-estetik vazifasi va konseptual ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu birliklar orqali o'zbek xalqining qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlari va ma'naviy merosi qanday aks etgani lingvomadaniy nuqtai nazardan baholanadi. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy tilining boyligi hamda barqaror til birliklarining madaniy-semantik tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, barqaror til birliklari, frazeologiya, lingvomadaniyat, madaniy semantika, turg'un birikmalar, maqol va matallar, badiiy til, konsept, milliy qadriyatlar, o'zbek tili, semantik tahlil.*

Рахимова Сулурхон Джуманиязовна (доцент кафедры «Узбекский язык и литература» филологического факультета Ургенчского государственного педагогического института)

К ВОПРОСУ О КУЛЬТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОМ ИССЛЕДОВАНИИ УСТОЙЧИВЫХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. *В данном исследовании рассматриваются культурно-семантические особенности устойчивых языковых единиц, функционирующих в произведениях Алишера Навои. Анализируются фразеологические единицы, пословицы, поговорки и другие устойчивые выражения, раскрываются их семантическое содержание, национально-культурная специфика и художественно-эстетическая функция. Особое внимание уделяется отражению в этих единицах национального мировоззрения, духовных ценностей, традиций и культурного наследия узбекского народа. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию языкового мастерства Алишера Навои и культурно-семантической природы устойчивых языковых единиц в его творчестве.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, устойчивые языковые единицы, фразеология, культурная семантика, лингвокультурология, фразеологические единицы, пословицы, поговорки, художественный язык, национальная культура, семантический анализ.*

Rakhimova Sulurxon Djumaniyozovna (Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Faculty of Philology, Urgench State Pedagogical Institute)

ABOUT THE CULTURAL-SEMANTIC STUDY OF STABLE LANGUAGE UNITS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Annotation. *This study examines the cultural and semantic features of stable language units used in the works of Alisher Navoi. It analyzes phraseological units, proverbs, sayings, and other fixed expressions, focusing on their semantic content, national and cultural characteristics, and artistic and aesthetic functions. Special attention is paid to the ways these language units reflect the worldview, spiritual values, traditions, and cultural heritage of the Uzbek people. The findings contribute to a deeper understanding of Alisher Navoi's linguistic mastery and reveal the cultural and semantic nature of stable language units in his literary works.*

Keywords: *Alisher Navoi, stable language units, phraseological units, cultural semantics, linguoculturology, fixed expressions, proverbs, sayings, literary language, national culture, semantic analysis.*

Kirish (Introduction). Alisher Navoiy o'zining boy adabiy merosida o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini nihoyatda keng va nozik tarzda namoyon etgan. Uning asarlarida ishlatilgan frazeologik birliklar o'zbek tilining obrazlilik, emotsionallik va estetik ifoda kuchining yuksak namunasi sanaladi. Barqaror til birliklari (frazeologizmlar) har bir milliy tilning o'ziga xosligini, madaniy va estetik qadriyatlarini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Bu birliklar xalqning dunyoqarashi, urf-odati, ijtimoiy-madaniy tajribasini aks ettiruvchi til birliklaridir. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan barqaror til birliklari o'zbek xalqining o'tmishdagi madaniy tafakkuri, axloqiy-meyoriy qarashlari va estetik didi haqida muhim ma'lumotlarni beradi.

Tilshunoslikda barqaror birliklarning semantikasi va madaniy xususiyatlarini o'rganishda bir qator nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, struktur-semantik, funksional-pragmatik hamda madaniy-semiotik yondashuvlar asosida frazeologik birliklarning mohiyatini chuqur ochib berish mumkin. Shu yo'nalishdagi tadqiqotlarda A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, V.V.Vinogradov, M.Mamajonov, M.Jo'rayev kabi olimlarning ishlari alohida o'rin tutadi. A.V.Kuninning fikricha, frazeologizmlar milliy mentalitetning asosiy ko'zgusi hisoblanadi. Ular xalqning tarixiy-madaniy tajribasiga asoslangan holda shakllanadi va avloddan avlodga o'tib, madaniy kod sifatida xizmat qiladi. Navoiy asarlarida aynan shu kodlashgan ma'nolarni tahlil qilish orqali o'sha davrning ijtimoiy-madaniy manzarasi tasvirlanadi. V.V.Vinogradov esa frazeologik birliklarning poetik matnlardagi badiiy-estetik yuklamasiga e'tibor qaratadi. Uningcha, mualliflar bu birliklar orqali obrazli ifoda, emotsional ta'sir va stilistik boylikka erishadilar. Bu holat Navoiyning asarlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari ustida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri M.Mamajonov bo'lib, u o'z tadqiqotlarida o'zbek frazeologizmlarining semantik va stilistik xususiyatlarini yoritadi. Shuningdek, A.A.Madvaliyev, S.G'aniyeva, Sh.Rahmatullayev singari tadqiqotchilar ham o'zbek adabiy tilidagi frazeologik birliklarning genezisi, tarkibi va funksiyalarini chuqur o'rganib chiqqanlar.

Alisher Navoiy asarlaridagi barqaror birliklarning madaniy-semantik tahlilida madaniyatlararo pragmatika va lingvokulturologiya yondashuvlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir frazeologik

birlikning semantik qamrovi uning ishlatilgan konteksti, davrning madaniy konvensiyalari va muallifning estetik maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shunday qilib, Alisher Navoiy asarlaridagi barqaror til birliklarini madaniy-semantik jihatdan tadqiq etish o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini o‘rganish, badiiy tafakkurining shakllanish jarayonlarini anglash va tilning madaniy funksiyalarini ochib berish uchun muhim ahamiyatga egadir. Ushbu tadqiqotda tilshunoslikning nazariy asoslari va ilg‘or metodologik yondashuvlariga tayangan holda barqaror birliklarning madaniy qatlamini aniqlashga urinish qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Navoiy tilidagi frazeologizmlar M. Mirtojiyev, N.Yo‘ldoshev, M.Jurayev, S. Meliyev, X.Tursunov kabi tilshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan: N.Yo‘ldoshev – “Xamsa” asaridagi tasviriy vositalarni frazeologik jihatdan o‘rgangan. Frazeologik birliklarning tasnifi [1;55–56-b.]. Tadqiqotchilar Navoiy asarlaridagi frazeologik birliklarni quyidagicha tasniflaydi: Nominal frazeologizmlar (masalan: ko‘ngil qushi – qalb istagi). Fe’lli frazeologizmlar (ko‘ngil ochmoq, ko‘z yummoq). Aforizmlar va maqollar asosidagi birliklar – xalqona hikmat shakllari. Navoiyda ishlatilgan ayrim frazeologizmlarning misollari: ko‘z yoshi to‘kmoq// Qayg‘uga botmoq. “Yodi tushsa, ko‘z yoshi to‘karman...”Ko‘ngil ochmoq//Rohatlanmoq, yayramoq“ Yor sohibi kelsa, ko‘ngil ochmasmenmi?”Dil bog‘lamoq // Muhabbat bilan bog‘lanmoq “Ko‘nglimg‘a dil bog‘lab yurgali...”Ko‘z tikmoq // Intilish, istak bilan boqmoq“Jamolingga ko‘z tikdim...”Yuz burmoq//Norozi bo‘lmoq, yuz o‘girmoq “Yor yuz burdi, holim aylandi”

Navoiy frazeologizmlarining xususiyatlari. Qur’oniya va hadisiy asoslar bilan uyg‘unligi. Ko‘plab frazeologizmlar tasavvufiy-falsafiy mazmunga ega. She’riy shaklda takrorlanadigan qoliplar. Navoiy ba’zi frazeologik iboralarni ma’no-emotsional kuchaytirish uchun qayta-qayta ishlatadi. Arabcha va forscha frazeologizmlarning o‘zbekcha talqin. Ular Navoiy asarlarida xalqchil ohangda milliylashgan shaklda uchraydi.

Ma’lumki, tilimizda inson tana a’zolari nomi bilan bog‘liq iboralar ko‘pchilikni tashkil etadi. Darsliklarda Navoiy asarlarida qo‘llangan “bosh” so‘zi bilan bog‘liq iboralar ma’nosi bilan keltirilgan. Bu iboralarning ma’nosini tushuntirishda o‘quvchilarga “bosh” so‘zi haqida ozgina tushuncha bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Bosh” so‘zi umumturkiy bo‘lib, hozirgi turkiy tillarning deyarli barchasida faol qo‘llanishda bo‘lgan til birligi sanaladi. Ko‘rinadiki, umumturkiy so‘z bo‘lgan “bosh” eng qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda ham qayd qilingan va bu so‘z oldindan polisemantik xususiyati bilan ajralib turgan. “Bosh” so‘zi o‘zbek mumtoz adabiyoti yozma manbalarida ham eng faol qo‘llaniladigan polisemantik so‘zlardan biridir. “Bosh” so‘zi Alisher Navoiyning birgina “Navodir ush-shabob” devonida 50 ga yaqin ma’nolarni ifodalashga xizmat qilgan, bu esa Alisher Navoiyning so‘z qo‘llashdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Shunisi muhimki, Navoiy asarlarida bu so‘z ko‘pgina iboralar tarkibida ham kelib, o‘z ma’no qirralarini kengaytiradi, yangi okkazional ma’nolar hosil qiladi, bu esa eski o‘zbek adabiy tilida badiiy nutqning ta’sirchanligini, emosional-ekspressivligini oshirishda “bosh” so‘zi juda muhim o‘ringa ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan “bosh indurmoq”, “bosh tortmoq”, “bosh chekmoq”, “bosh urayinmu”, “boshiga tegirmon toshi aylandurmoq”, “bosh olib ketmoq”, “boshiga ish tushmoq”, “boshdin dud chiqarmoq”, “bosh qoshib qolmoq”, “boshi ko‘kka yetmoq”, “bo‘rk o‘rnida bosh eltur” kabi iboralar tarkibida “bosh” komponenti ishtirok etgan. Jumladan, “boshi ko‘kka yetmoq” iborasi “behad sevinmoq, quvonmoq” ma’nolarini ifodalaydi. Bu ibora hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham keng qo‘llanadi. Alisher Navoiy bu iborani qo‘llagan variantlarini o‘quvchilarga quyidagi jadval ko‘rinishida tushuntirish mumkin. Ko‘kka yetgay bosh Xursand bo‘lmoq “Navodir ushshabob” Ko‘kka yetkay boshi, qo‘yg‘on lahza shoh oldida bosh. Boshimni ko‘kka o‘tkurdung Xursand bo‘lmoq “Badoye ulvasat” ...degach sargashta Majnunum, boshimni ko‘kka o‘tkurdung Yetar gardunga toji rif’ati Xursand bo‘lmoq “Favoyid ulkibar” ...Ne xabar ulkim, yetar gardunga toji rif’ati E’tibor qilsak, birgina “boshi ko‘kka yetmoq” iborasidan Alisher Navoiy uch xil variantda foydalangan. Uchinchi marta foydalanishda uning individual-muallif sinonimini ijod qilgan, ya’ni, “osmon” so‘zining tojikcha ma’nodoshi “gardun” “bosh” so‘zining sinonimi bo‘lgan “toji rif’ati” bilan munosabatga kirishib, yangi iborani shakllantirgan.

Frazeologik etimologiya, frazeologik stilistika, turli tillar frazemalarini qiyosiy o‘rganish frazeologik qatlamlarini belgilash, frazemalarni o‘zlashtirish kabi masalalar, xalq tili frazeologiyasi, o‘zbek folklori frazeologiyasi, o‘zbek dialektal frazeologiyasi materiallari ham ilmiy tahlilga jalb etilishi maqsadga muvofiq. Frazemalarni komponent tahlil etish, komponentlarning frazemalarni shakllantirishdagi o‘rni kabi masalalar ham o‘zbek frazeologiyasi ilmi oldida turgan muhim muammolardan biridir . B.Yo‘ldoshev «Frazeologik uslubiyat asoslari» asarida frazeologik sinonimlarning frazeologik variantlardan farqlarini qayd

qilib, ularning qo'llanishida frazeologik sinonimlarning ham biri o'rnida ikkinchisini ishlatsa bo'ladi, lekin sinonim iboralar uslubiy jihatdan o'zaro mos bo'lsa, adabiy-uslubiy normaga muvofiq kelsagina o'zaro o'rin almashadilar» [2;46-b.], deb ta'kidlaydi. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida parafraza (perifraza)lar sinonimiyasi, so'zlarning funksional-semantik sinonimlarini o'rganish sohasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. H.Shamsiddinov ishlarida sinonimiya hodisasini juda keng ma'noda talqin qilinadi, so'zlarning funksional-semantik sinonimlari bo'lishi mumkin bo'lgan til birliklarini o'ndan ortiq guruhlarga ajratib o'rganadi [4;65–69-b.]: 1. Sifatdosh oboroti funksional-semantik sinonim bo'ladi: qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh), tinim nimalagini bilmaydigan (ishchan, g'ayratli, harakatchan), tog'ni ursa talqon qiladigan (azamat, pahlavon) kabi. 2. O'xshatish ifodasi bo'lgan birliklar funksional-semantik sinonim bo'ladi: uzukka ko'z qo'ygandek, pashsha uchsa eshitilgudek (juda, g'oyatda, nihoyatda), igna bilan quduq qazishdek (sermashaqqat) kabi. 3. Perifraza funksional-semantik sinonim bo'ladi: oq oltin ustalari (paxtakorlar), kumush tola (pilla), zangori olov (gaz) kabi. 4. Sodda gap ko'rinishidagi birliklar funksional-semantik sinonim bo'ladi: tili boshqayu dili boshqa (ikkiyuzlama), bitta gap kam, ikkita gap ko'p (nozik), yer tagida ilon qimirlasa biladi (sezgir) va boshqalar. B.Qilichev "Frazeologik sinonimiya xususida" nomli maqolasida "bosh" komponentli frazeologik sinonimlarning miqdor jihatdan ko'pligining sabablarini tilda partonimiya (butunnom va bo'laknom) hodisasining keng tarqalganligi bilan izohlashga intiladi. Bu ishda "bosh" komponentli frazeologizmlar uch guruhga ajratib o'rganilgan: a) faqat bosh so'zi qatnashgan iboralarning o'zaro sinonimligi: boshiga yetmoq – boshini yemoq, boshi ko'kka yetdi – boshi osmonda, boshi shishdi – boshi qotdi kabilar; b) "bosh" so'zi bilan sinonim bo'lgan so'z qatnashgan iboralarning o'zaro sinonimligi: boshi achidi – miyasi achidi, boshida danak chaqmoq – miyasida danak chiqmoq, boshi g'ovlab ketdi – miyasi g'ovlab ketdi – kallasi g'ovlab ketdi kabilar; d) "bosh" so'zi bilan sinonim bo'lmagan so'z qatnashgan iboralarning o'zaro sinonimligi: bosh(i)ga ko'tarmoq – shovqin solmoq, bosh(i)dan kechmoq – ko'ngl(i)dan o'tmoq, bosh(i)ni bukmoq – yuz(i)ni yerga qaratmoq [6;24-b.] kabilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)."Frazeologizm" atamasi termini ilk bor fransuz tilshunosi S.Balli tomonidan fanda qo'llanilgan. Frazeologik birliklar tushunchasiga olim quyidagicha ta'rif beradi: "tilda turg'un holatda mavjud bo'lgan, hamda nutqqa tayyor holatda olib kiriladigan birliklar." Demak, frazeologik birliklar tarkibidagi elementlar (so'zlar) nutq paytida o'zgarishsiz saqlanadi va bu frazeologizmlarning boshqa til birliklaridan farqli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ingliz va Amerika tilshunoslari L.P.Smith, A.Maskay, J.Seidlou, va V.Mordi "idioma" terminini ilk bor o'z asarlarida qo'llashgan va bu atamaga "tarkibidagi so'zlar ma'nosidan kelib chiqib ma'nosi anglashila olmaydigan til birliklari" deb ta'rif berganlar. Nemis tilshunosligida ham frazeologiya sohasining o'rganilishiga katta e'tibor qaratilgan. Turli olimlar frazeologiyaga oid tushunchalarni izohlab, o'z nazariyalarini taklif etganlar. Yana bir talay tilshunos olimlar frazeologik birliklarni turli tamoyillar negizida tasniflashga, frazeologizmlarni alohida guruhlarga bo'lib o'rganishga harakat qilishgan. Masalan, M.D.Stepanov va I.I.Chernishovalar frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik guruhlari mavjud ekanligini ta'kidlaganlar. Mashhur lingvist U.Fiks frazeologizmlarni gap bilan qiyoslab, tarkibidagi ish harakatni bildiruvchi leksemaning ma'-nosi frazeologik ma'noga ta'sir ko'rsatishi yoki ko'rsatmasligini hisobga olib, bunday birliklarning 2 turi mavjudligini aytgan. Teo Shippan esa frazeologizmlarni "frazeologik butunlik" va "turg'un birikmalar" ka-bi guruhlarga ajiratgan. A.V.Kunin frazeologik tushunchasi doirasida "frazeologik ma'no – bu semantik jihatdan murakkab, alohida shakllangan til birliklari bilan ifodalanadigan ma'lumotlarning o'zgarmasidir, bu so'zlarning o'zgaruvchan birikmalarining strukturaviy va semantik modellarini yaratish bo'yicha shakllanmaydi", degan edi.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar, dastlab, Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Shuningdek, maqol Koshg'ariy asarida "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin", "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" kabi maqollarni hayotda juda kop ishlatamiz. Maqollar ba'zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. Maqol va matallar xalqning tarixiy og'zaki va yozma ijod mahsuli hisoblanib, xalqning ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli voqea hodisalarga munosabatining ifodasidir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maqol so'zning ko'rki, nutqning o'tkir quroli, xalqning donishmandligidir. Har bir xalqning tarixi, tafakkuri va ruhiy holatlari maqol, matallarda o'z ifodasini topadi Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning timsoli, xalqning milliy va madaniy merosi namoyon bo'ladi. Maqol,matallarda vatanni sevish, mehnat qilib yashash g'oyalari va boshqa ko'plab insoniy fa-

zilatlar ilgari suriladi. To‘g‘ri, har bir maqol va matal ham shakl, ham ma’no, ham funksional jihatdan o‘ziga xos xususiyatga ega. Maqollarning yana bir tarafi borki, bular deyarli ko‘p hollarda umumiy mazmun mohiyati shakllangan holda o‘xshashliklarga ega bo‘ladi. **It hurar, karvon o‘tar,** Ajdarga chiqora chaqsa gar ilon, It xurar va lekin to‘xtamas karvon (F.Sh.265) **Har kim birovga choh qazisa, o‘zi tushadi,** Hiylagar Farhodga qaziyman deb chox, Uning o‘zi qular bu choxga nogoh (F.Sh.271). A.Navoiy o‘z asarlarida xalq donishmandligidan unumli foydalangan. Demak, Alisher Navoiy xalq maqollarini ay-nan takrorlamaydi, balki ularning mazmuniy asosini saqlagan holda badiiy tafakkur mahsuli sifatida qayta ishlaydi. Natijada maqollar shoir asarlarida lingvomadaniy birlik sifatida milliy tafakkur, axloqiy qadriyat-lar va xalq donishmandligini ifodalovchi muhim madaniy-semantik vositaga aylanadi. Bu holat Navoiy ijodining xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liqligini hamda uning barqaror til birliklaridan foydalanishdagi yuksak badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan barqaror til birliklari nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki xalqning milliy tafakkuri, ma’naviy qadriyatlari va madaniy tajribasini o‘zida mujassam etgan muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Ularning madaniy-semantik tahlili mazkur birliklarning chuqur ma’no qatlamlari, konseptual mazmuni hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Navoiy asarlaridagi frazeologik birliklar, maqol va matallar, turg‘un iboralar hamda boshqa barqaror til birliklari milliy dunyoqarash, axloqiy-me’yoriy qarashlar va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodasini ta’minlaydi. Shuningdek, ushbu birliklar asarlarning ta’sirchanligi va estetik qimmatini oshirish bilan birga, muallifning individual uslubini namoyon etuvchi muhim til vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois Alisher Navoiy asarlaridagi barqaror til birliklarini madaniy-semantik jihatdan o‘rganish o‘zbek tilshunosligi, frazeologiyasi va lingvomadaniyatshunosligi rivojida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Yo‘ldoshev N. Alisher Navoiy asarlarida til va uslub. Toshkent, 1998, 55–56-betlar.

(2). Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол.фанлари доктори диссертацияси автореферати, Тошкент, 1993, 46-бет.

(3). Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фан. номз. дисс., Тошкент, 2008, 12-бет.

(4). Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Самарқанд, СамДУ нашри, 1999, 71-бет.

(5). Шамсиддинов Ҳ. Сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 1995, 1-сон, 65–69-бетлар.

(6). Қиличев Б. Фразеологик синонимия хусусида. “Илм сарчашмалари”, УрДУ нашри, 2005, 3-сон, 52–54-бетлар.

Shernazarova Gulshan Abdullayevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi)

NISHOTIY “HUSN-U DIL” DOSTONIDAGI MUNOZARALI AYRIM ETIMOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Muhammad Niyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonida uchraydigan ayrim turkiy leksemalarning etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, xoqon, xon, ko‘ngul va qiz leksemalarining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi hamda semantik xususiyatlari qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida ushbu leksemalarning turkiy ildizlari va badiiy matndagi funksional xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar*: Nishotiy, Husn-u Dil, etimologiya, turkiy leksika, tarixiy leksikologiya, ko‘ngul, xoqon, xon, qiz.*

АНАЛИЗ ЭТИМОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ТЮРКСКИХ ЛЕКСЕМ В ПОЭМЕ НИШОТИ «ХУСН-У ДИЛ»

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этимологические особенности некоторых тюркских лексем, встречающихся в поэме Мухаммада Нияза Нишоти «Хусн-у Дил». Анализируются происхождение и семантическое развитие слов хакан, хан, кўнгул и киз. В работе используются сравнительно-исторический и этимологический методы исследования.*

Ключевые слова*: Нишоти, Хусн-у Дил, этимология, тюркская лексика, историческая лексикология, конгул, хакан, хан, киз.*